

THE SYSTEM OF PRACTICAL AND EVOLUTIONARY FORMATION OF LITERARY CONCEPTS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Mamatova Gulshan Amankulovna

PhD, Tashkent City Regional Center for retraining and
Professional development of staff of public education
Tashkent City, Republic Of Uzbekistan

Annotation

This article is devoted to the problem of the formation of literary concepts in pupils in primary school reading lessons. In it, the main difficulty in the formation of literary concepts in the primary classes is explained, the issues of their spelling. The article highlights the system of practical and evolutionary formation of literary concepts in primary school students.

Support Words: genre, title, descriptive arrangement, method, expressive reading, literary activities, aesthetics activities, didactic demand.

Umumta'lim maktablarining kompetensiyaviy yondashuv asosidagi DTS va o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodlari yaratilishi har jihatdan barkamol inson tarbiyasi bilan bog'liqdir. Jumladan, boshlang'ich ta'lim DTSida boshlang'ich ta'lim o'qish darslari oldiga qo'yiladigan talablar o'quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu ko'proq o'qish darslarida badiiy asar qahramonlariga baho berish jarayonida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan asarlar o'quvchilarda vatanparvarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim vositasidir. Asar qahramonlari ustida ishlashning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakatini baholashga o'rgatish usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotshunoslik fani «obraz-personaj» (insoniy xarakter), «obraz-tasvir» (tabiat tasviri), «obraz-predmet» (atrof-muhit va narsalar) va hokazolarni farqlaydi. Ularning ichida obraz-personaj yoki obraz-xarakter markaziy masalalardan sanaladi. Negaki ular qahramon obrazini aniqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Asar qahramoni mohiyat - e'tibori bilan syujetni harakatlantiruvchi hisoblanadi, uning xatti-harakatlaridan syujet zanjiri hosil bo'ladi. Ta'kidlash joizki, «qahramon» tushunchasining o'zi eng qadimgi zamonlarda qahramonlik yurish-turishlari mashhur bo'lgan kishilar bilan bog'liqdir. Keyinchalik badiiy asarlarning barcha personajlari «qahramon» deb yuritila boshlandi.

Qadimgi afsona, ertak, dostonlardagi qahramonlar ham ijobiy, ham salbiy xususiyatga ega bo'ladilar. Xususan, boshlang'ich sinflarda ham o'quvchilar «O'qish kitob»lariga kiritilgan qahramonlik, botirlikni madh etuvchi «Alpomish», «Rustamxon» dostonlaridan parchalar, «Cho'pon yigit Shiroq», «To'maris» kabi rivoyatlarni, «Jaloliddin Manguberdi» kabi tarixiy shaxslar haqidagi asarlarni o'qishadi. Bu o'quvchilarga qahramonlarni yaqinroq qilib qo'yadi. O'quvchi ularning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, natijada axloqiy xislatlarni o'zida jamlashga intiladi. Ularda kishilarga, tabiat va Vatanga nisbatan ma'lum munosabat paydo bo'ladi.

Adabiy qahramon obrazi qanday yaratiladi? Qadimgi matnlar, ertaklarda bizning hozirgi tushunchamizdagi qahramon obrazi yo'q. Og'zaki hikoya qilishga mo'ljallangan ertakni yaratayotgan jamoaviy muallif xalq qahramonining tashqi ko'rinishini to'la ifodalashni ortiqcha hisoblaydi. Uning o'ylariga e'tibor bermaydi, faqat ozroq ularni sharhlab o'tadi, xolos.

Boshlang'ich ta'lim dasturiga muvofiq o'qish darslarida «obraz» atamasi qo'llanmaydi, balki asar tahlilida «qatnashuvchi», «ishtirok etuvchi shaxs» atamasi ishlatiladi.



Matn ustida ishlash jarayonidagi asosiy vazifalardan biri shuki, 4-sinf yakunida o'quvchilarda asarda qatnashuvchi shaxslar haqida ma'lumot berish uchun material tanlay olish, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalay olish, qatnashuvchilar haqida hikoya tuzish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

O'quvchilar tomonidan qahramon xarakterining tushunilishida unga nisbatan befarq qaramasliklari juda muhimdir. Shu bilan birga, qahramon obrazi tahlili tarkibiga o'quvchilarning asardagi qatnashuvchi shaxslarga shaxsiy munosabatlarini aniqlash tahlil samaradorligiga xizmat qiladi.

Qahramon ustida ishlash bosqichlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etish jarayonining psixologik asoslarini hisobga olish bilan aniqlanadi. Bunda qahramon timsoli ustidagi ishlarni quyidagicha uch bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Qahramonni hissiy, qisman motivlashgan tarzda idrok etish.

2-bosqich. O'quvchilarning birlamchi yaxlit idrokini aniqlashtirish.

3-bosqich. O'quvchilarning umumlashgan motivatsion baholashi.

Matnni idrok etish uchun xarakterli bo'lgan birinchi bosqichda (asar endigina o'qilganda) o'quvchilar qatnashuvchi shaxslar haqidagi taassurotlarini hissiy asosda bildiradi. Bunda o'quvchilar o'z baholarini umumiy tarzda asoslashi mumkin.

O'qituvchi hikoya mazmuni bilan tanishtirgandan so'ng o'quvchilarga bosh qahramonni qanday tasavvur qilishayotganini aytishni taklif etadi. Masalan, 3-sinfda «Alpomish» dostonidan parcha o'qib o'rganilganda, asar qahramonlarini qanday tasavvur qilishayotganini tavsiflash topshirig'ini berishi mumkin. Yoki 3-sinfda «Yordam berdi» (Yayra Abdullayeva) hikoyasi o'qib bo'lingach, o'qituvchi tahlilni quyidagi savol-javob asosida uyushtirishi mumkin:

– Sizga asardagi qaysi qahramon yoqdi? Unga qanday baho berasiz? O'quvchilar savolga javob berishda, odatda, o'z javoblarini hikoyadagi yorqin tasvirlardan foydalanib asoslaydilar:

– Shohida menga yoqdi. U Faridaning onasiga o'rtog'i yo'qligida yordam berdi. Farida esa kasal onasini, chaqaloq ukasini tashlab teatrga ketdi. Uni yomon ko'rib qoldim.

Hikoya singari ertak o'qilganda ham, o'qituvchi o'quvchilarga asardagi o'ziga nisbatan mehnini, yaxshi munosabatni talab qiladigan qahramonlarni va hurmatga noloyiq shaxslar nomini aytishni taklif qilishi mumkin.

Shunday qilib, birinchi bosqich qahramonga baho berishga undaydi, matn ustidagi keyingi ishlar uchun zamin yaratadi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarning asar voqealarida qatnashuvchilar to'g'risidagi ilk tasavvurlarini aniqlash vazifasi qo'yiladi. Bu bosqichda matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda asar voqealarida qatnashuvchi shaxslar haqida ma'lumot to'plash malakasini shakllantirishning ikkita asosiy varianti bo'lishi mumkin:

a) o'qituvchi o'quvchilarning asar qahramonini qanday tasavvur qilayotganini so'raydi;

b) o'quvchilar matnni o'qituvchining ko'rsatmasiga ko'ra qismlarga bo'lib o'qiydilar. O'qilgan qism bo'yicha qahramon haqida qanday yangilikdan xabardor bo'lishi, qaysi xususiyatlari aniq namoyon bo'lganligi mazmunni tahlil qilish jarayonida aniqlanadi.

Ikkinchi variant nisbatan murakkab bo'lib, o'quvchilarning faolligi va mustaqilligiga tayanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish amaliyotida har ikki variantdan ham foydalaniladi: birinchisi o'qituvchi rahbarligida amalga oshadi va ta'limiy xarakterga ega bo'lsa, ikkinchisi o'quvchilardan yuksak darajadagi mustaqillikni talab etadi.

Asardan aniq daliliy material tanlash jarayonida o'quvchilarda muallif tomonidan qahramonga berilgan baho va unga bo'lgan o'z munosabatiga oid badiiy til vositalariga qaratiladi.

Asar qahramonlari xususiyatlarini to'g'ri va to'liq qabul qilish uchun uni boshqa qahramon yoki qahramonlar bilan taqqoslash muhimdir. Masalan, 3-sinfda Yayra Abdullayevaning «Yordam

berdi» asaridagi Farida bilan Shohida, Mahmud Murodovning «Sohiba kimdan xafa» hikoyasidagi Sohiba va Saodatni; 4-sinf «O‘qish kitobi»ga kiritilgan Hakim Nazirning «Qodir va Sobir» hikoyasidagi Qodir bilan Sobir, Normurod Norqobilovning «Xarita» hikoyasidagi Samad bilan Rasul bir xil vaziyatlarda qolishadi, lekin turlicha yo‘l tutishadi. Taqqoslash ulardan har birining o‘ziga xos xususiyatlari haqida hukm chiqarishga yordam beradi.

Asarning asosiy g‘oyasi va unda qatnashuvchi shaxslari ustida ishlash tizimi sinfdan sinfga o‘tgan sayin asta-sekin murakkablashib boraveradi. Bu ko‘nikmalar boshlang‘ich sinflarda sinflararo quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinf. O‘qituvchining asosiy g‘oyani aniqlashga yo‘naltirilgan savollariga javob bera olish ko‘nikmasi.

2-sinf. O‘qituvchi yordamida o‘qilgan asardagi asosiy fikrni aniqlash ko‘nikmasi. O‘qituvchi yordamida qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatlarini tavsiflovchi so‘z va iboralarni matndan izlab topish ko‘nikmasi.

3-sinf. Hikoya qismlari va butun mazmunidagi asosiy fikrni ajratish ko‘nikmasi. Qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlariga baho berish malakasi.

4-sinf. Qatnashuvchi shaxslar haqida so‘zlab berish uchun material tanlash, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga o‘z munosabatini bildirish, hikoya tuzish malakasi.

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf o‘qish ta‘limida o‘quvchilarning adabiy ko‘nikmalarini shakllantirishda asar g‘oyasi va qahramonga alohida e‘tibor qaratish kitobxonlik ko‘nikma-malakalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

Literature

1. Zhurayev N. The study of game and reading motivations in junior school age students / / pedagogical education. - T.: 2008. – №4. - What?13-14.
2. Jurayeva G. Satire and humor in the poetry of students / / Uzbek language and literature. - T.: 2010. – № 6. - What? 70-73.
3. Mamatova G. Methodology for the formation of literary concepts in students in primary school reading lessons. PhD. disse. - T.: 2020. - 140 P.
4. Marasulova U. Formation and improvement of students literary and theoretical understanding in secondary schools. Ped.science.nomz. disse. - T.: 2007. - B 25-26.